

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Bekmuratova Shohida Ne'matjonovna

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti, Andijon sh., O'zbekiston.

e-mail: shokhida2020@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish ishlari ilgari surilgan bo'lib, tasviriy san'at fanini o'qitishning nazariy asoslari yoritilgan. Metodik tayyorgarlik esa ta'lim sifatini ta'minlash va buning an'anaviy usullar vositasida, ya'ni o'zlashtiriladigan ma'lumot hajmini oshirish yo'li bilan hal qilinmasligi orasidagi ziddiyat tufayli yuzaga kelgan muammoli holatdan chiqishni o'rgatadi. Bundan tashqari, kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda til ta'limining o'rni va kommunikativ kompetensiya chet tili vositasida maishiy, o'quv, ishlab chiqarish va madaniy hayotda dolzarb bo'lgan muloqot masalalarini hal qila olish, til va nutq vositalari yordamida muloqot maqsadlariga erishish masalalari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak o'qituvchi, metodika, o'quv-tarbiya ishlari, bilim, ma'lumot, malaka.*

Технологический подход к совершенствованию методической подготовки преподавателя изображения

Аннотация: *Данная статья направлена на совершенствование методической подготовки будущих учителей изящных искусств и охватывает теоретические основы преподавания изящных искусств. Методическая подготовка учит поиску выхода из проблемной ситуации, возникающей ввиду противоречивости между обеспечением качества образования и отсутствием его осуществления средствами традиционных способов, то есть путём повышения объёма усваиваемой информации. Кроме того, рассмотрены вопросы роли языкового образования в развитии профессиональных компетенций, решения актуальных проблем связи коммуникативной компетенции с бытовой, учебной, производственной и культурной жизнью посредством иностранного языка, достижения целей связи при помощи средств языка и речи.*

Ключевые слова: *будущий учитель, методика, учебно-воспитательная работа, знание, образование, квалификация.*

Technological approach to improvement of the methodological preparation of the image teacher

Abstract: *This article aims to improve the methodological training of future fine arts teachers and covers the theoretical foundations of fine arts teaching. Methodical training teaches how to find a way out of a problematic situation arising from the contradiction between ensuring the quality of education and the lack of its implementation by means of traditional methods, that is, by increasing the volume of assimilated information. In addition, the issues of the role of language education in the development of professional competencies, solving urgent problems of communication of communicative competence with everyday, educational, industrial and cultural life through a foreign language, achieving communication goals using the means of language and speech are considered.*

Key words: *future teacher, methodology, teaching and educational work, knowledge, education, qualifications.*

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish borasida maxsus kuzatuvlar tajribalar va tajribali metodist tasviriy san'at o'qituvchilarining ish tajribalari o'rganilib, ulardan tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi. Ma'lumki, umumta'lim maktablarida tas'viriy san'at o'quv predmetining dars mashg'ulotlari o'zing o'qitish texnologiyasiga ko'ra turlanadi.

Tasviriy san'atni o'qitilishi tarixini, unda eng samarali dars texnologiyalari, o'qitish didaktikasi va bilim malaka berish metodikasini shakllanishidan boshlab, uni takomillashtiruv jarayonlari o'rganib chiqildi. Ayniqsa, bu fanni o'qitib chiqishda o'rta asrlar pedagogikasi va metodikasida alohida e'tibor beriladi. Chunki, umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasini shakllanishi qadimgi Yunon va Rim umumta'lim maktablaridan boshlansada, uni texnologiyalashuvi va fan sifatida tan olinishi o'rta asrlarda nihoyasiga yeta boshlaydi. Bu o'rinda Ch.Chennino, B.Alberti, Dyurer, aka-uka Dyupyun, A.Ashbe, P.Chistyakov, A.Kardovskiy, Ya.Komenskiy, Jon Lok, T.Russo, I.Gyote, I.Pestalotsii, Petr Shmit, A.Sapojnikov, K.Ushinskiy kabi pedagoglarning tasviriy san'atni o'qitish metodikasi xususidagi qarashlari e'tiborga loyiqdir. Ularning fikrlari umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari texnologiyasini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, XIX-XX asrlarda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasini rivojlanishida Yaponiya, AQSh, Frantsiya, Angliya, Italiya, Rossiya umumta'lim

maktablarilari tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mamlakatlarda umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasini tashkil etish va ularni takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi va eng yaxshi tajribalar umumlashtiriladi.

XX asrda Rossiya umumta'lim maktablarilarida tasviriy san'atni o'qitishni ancha mukammal dars texnologiyalari yaratiladi. Bu o'rinda P.Chistyakov, F.Kulman, D.Kardovskiy, K.Yuoon, E.Kondaxchan, E.Ignatev, A.Karlson, N.Rostovtsev, V.Kuzin, Ye.Shoroxov kabi pedagoglar umumta'lim maktablari tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodkasini takomillashuvida katta xizmat qildilar.

O'zbekistonda umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish asosan XX asrdan boshlangan bo'lsada, rasm chizishni o'rgatish texnologiyasi bo'lganligi ma'lumdir.

Bular haqida A.Navoiyning o'ziga ustoz deb bilgan Sodiqbek Afshor-Minatyurachi rassom bo'lgan holda, u o'zining "Qonun as suvar", Qozi Ahmadning "Hattot va Musavvirlar haqida" yozgan rasolarida XVI-XVII asr O'rta Osiyo rassomchiligi san'ati haqida ma'lumotlar berishi bilan birga, rassomchilikni o'rgatish borasida ham o'z qarashlarini bayon etadi¹.

O'rta asrlarda K.Bexzod atoqli rassom Mirax Naqqosh umumta'lim maktablarida o'qigani, Mira Naqqosh esa Shoxrux Mirzo zamonida yashagan ustoz mavlono Valiullo umumta'lim maktablarida tahsil ko'rgan degan taxminlar ham bor. Lekin Mirax Naqqoshning ustози Movarounnahrlik iste'dodli-ustoz naqqosh Jahongir bo'lgan deyiladi².

Bulardan shu narsa ma'lum bo'ladi-ki, O'rta Osiyo va Xuroson tasviriy san'ati umumta'lim maktablarilarini shakllanishida va rivojlanishida Samarqand rassomchilik umumta'lim maktablarining o'rni alohida quriladi.

Lekin, bizga o'rta asrlarda rivojlangan rassomchilik umumta'lim maktablarilarining asoschilarining ko'pchiligi ma'lum emas. Ma'lum

¹Manbaa P.Zoxidov. Me'mor san'ati. T. 1978 y. (32 - bet) olindi.

²O.Usmanov. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. T. 1977 y. (35 - bet).

bo'lganlarining ham ijodiy biografiyasi hozirga qadar to'la o'rganilmagan va aniqlanmagan holda kelmoqda.

O.Usmanovning “Kamoliddin Bexzod va uning naqqoshlik umumta'lim maktablari” nomli asarida O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eron va boshqa chet el manbalarida tasviriy san'at umumta'lim maktablarini shakllanishi va rivojlanishi xususida to'xtab o'tiladi.

XX-XXI asrlarda O'rta Osiyo va O'zbekistonda badiiy ta'lim va tarbiyani rivojlanishi hususida bir qator ilmiy xulosalar beriladi³.

XX asrning 90-yillarida O'zbekiston umumta'lim maktablarilarida tasviriy san'atni o'qitilishini shakllanishi va rivojlanishi mavzusidagi O.Xudoyarovaning ilmiy ishida tasviriy san'atni o'rta asrlarda “Ustoz-shogird” umumta'lim maktablarilari va XX asrda tasviriy san'ati o'qitilishi xususida alohida ilmiy xulosalar beradi⁴.

Bunda XX asrni 70-90 yillarida va muallifning o'tgan 20 yillik davrida umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitilishi didaktikasi va metodikasi xususida olib borilgan maxsus kuzatuvlar, eksperiment darslar umumta'lim maktablari tasviriy san'ati dars texnologiyasini va bu fanni o'qitish metodikasini mukammal holda ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy xulosalar bera oldi.

Shularga ko'ra bugunga umumta'lim maktablarida tasviriy san'atning dars-mashg'ulotlarini tashkil etish va uni o'tkazish texnologiyasi bo'yicha so'nggi sahifalarda alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish davrida umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi bilan muntazam holda shug'ullanib kelgan va kelayotgan pedagog olimlar o'zlarining qator tadqiqot ishlarida dars texnologiyasi haqida bayon etganlar. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda umumta'lim maktablari tasviriy san'ati, uning dars va o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi haqida alohida tushuncha, alohida hulosalar

³ R.Xasanov. “Metodicheskie osnovi xudojestvennogo obrozovaniya i vospitaniya v obsheobrazovatel'noy shkole”. T. 1990 y.

⁴ O.Xudoyorova. Stonovlenie i razvitie prepodovaniya izobrazitel'nogo isskustva v obsheobrazovatel'nix shkolax Uzbekistana. Avtorof. T. 1997 y

va alohida tavsiyalarni bayon etish ko'zda tutiladi. Bunday ancha murakkab vazifani ado etishda Ya.A.Komenskiy, Pestalotstsi, Gerbart, P.Shmit, Sapojnikov Rostovtsev Kuzin, Sharoxov, Hasanov, Suleymanov, Oripov, Egamov va boshqalarning pedagogik qarashi va tasviriy san'atini umumta'lim mazmunidagi maqsad va vazifalari, uni davlat standartlari va dasturi asosida o'qitish, bu fanni o'qitishning o'ziga xos dars texnologiyasi, didaktik va metodikasi xususidagi fikr-mulohazalari, ularning ilmiy pedagogik-qarashlari va ularning ilmiy meroslri asosida o'rganib chiqiladi va tegishli xulosa va tavsiyalar berishni ish mazmuniga kiritiladi.

Shuningdek Ya.Komenskiy, Peetalotstsiy, K.Ushinskiy A.Sayidahmedov, B.Ziyomuxammedov, M.Tojiev, J.Yo'ldashev kabi pedagog olimlarning ilmiy asarlaridan keng mazmunda ijodiy foydalanildi.

Tasviriy san'atni o'qitishining pedagogik texnologiyasi – o'quvchilarga tasviriy san'at bo'yicha bilim – malakalar berish, ular asosida shaxsni rivojlantirish qonun – qoidalarini o'zida mujassam etgan holda oldindan rejalashtirilgan natijani kafolatlaydigan, pedagogik faoliyatdir, - desak uni didaktik jarayoni va metodik yo'nalishi qay tarzda talqin etiladi?

Pedagogik texnologiya – murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan va o'z navbatda bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi⁵.

Agar biz tasviriy san'atning dars mashg'uloti, ya'ni 45 minutli vaqt ichida barcha imkoniyat, shart–sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan (qanday darajaligidan qat'iy nazar) foydalanib, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning barchasi (N.Talizina ta'rifiga ko'ra) tasviriy san'at darslarining pedagogik texnologiyasi bo'ladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda asosiy narsa – bu kafolatlangan natija bo'yicha imkoniyat, shart-sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo'lib, ularni tashkil etish tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi va uning printsiplarining asosiy vazifasiga kiradi.

⁵ N.Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiya. T. 2003 yil. (70-74 bet)

Chunki, umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi har bir dars mashg'uloti uchun eng avvalo berilayotgan bilim va malakalarni ilmiy asosda bo'lishi ta'minlanadi. Ilmiylik printsipti – o'quvchilarga rasmi chiziladigan natura, ob'ekt, mavzu, voqea – hodisalarni yoki tahlil qilanadigan san'at asari bo'yicha beriladigan har bir ma'lumotni ilmiy va fan ma'lumotlari asosida bo'lishini ta'minlaydi.

So'ngra beriladigan bilim-malakalar sistemali, ketma-ketlik asosda bo'lishi ta'minladi-ki, bu pedagogikani yoki didaktikani osondan-qiyinga borish printsipti asosida olib boriladi.

Bu jarayon avval osonroq tasvirlanadigan, oddiy predmetlar rasmini chizib, keyingi mashg'ulotlar asta murakkablashtirib borish asosida quriladi.

Bular umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fani dasturida berilgan mavzularning ketma-ketlik mazmunida o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Shuningdek, umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fani bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, malakalar didaktikani tarbiyaviylik printsiptiga amal qilingan holda olib boriladi.

Chunki umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fani o'quv predmeti o'quvchilarni badiiy – ahloqiy, estetik, mehnatga, o'z xalqiga, Vataniga, ota – bobolar ijodiga katta hurmat bilan qarashga o'rgatadi⁶.

Yana umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitish texnologiyasi va didaktikasi talabiga ko'ra har bir dars o'quvchilarga berilayotgan bilim va malakalarini shu darsni o'zida amaliyotida qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, darsni asosiy qismida berilgan yangi bilim va ma'lumotlar asosida rasm chizish amaliyoti bajariladi. Bu fanni mazkur imkoniyati va shart-sharoitiga ko'ra uning dars texnologiyasida ijodiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda g'oyat ahamiyatga molik bo'lgan didaktik printsipti – o'quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi, malakasiga mos holda o'qitishga

⁶ R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasi.T. 2004 yil (83-98 bet)

shart-sharoit va imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir⁷. Bu printsip o'qituvchilarning metodik imkoniyatini oshirib, o'quvchilarning barchasini rasm chizishga va tasvirlar yaratishga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda o'quvchilarga beriladigan bilim, malakalarini ijodiy, faol, mustaqil va tashabbuskorlik asosida bo'lishiga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarga beriladigan tasviriy san'at bo'yicha bilim malakalarini oson, qisqa, tushunarli, ilmiy asosda bo'lishini ta'minlashda didaktikani ko'rgazmali o'qitish - ta'lim berish texnologiyasida eng asosiy didaktik printsip sanaladi.

“Umumta'lim maktablarida ko'rgazmasiz o'qitib bo'lmaydigan yagona o'quv fani bu tasviriy san'atdir” – deb doimo ta'kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini metodik tayyorgarlashda tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasiga oid ko'rgazmalilik – oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik printsipning eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi⁸.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini metodik tayyorgarlashda tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasidagi didaktik jarayon V.P.Bespalko ko'rsatib o'tganidek, - Yangi dars materialiga kirish – ya'ni, - o'quvchilarni yangi dars materialini qabul qilishga tayyorlash - motivatsiya jarayoni bilan boshlanadi. Bu o'quvchilarni yangi dars materialiga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini metodik tayyorgarlashda asosiy o'rinni uni o'qitish didaktikasi va metodikasi oladi. Chunki metodika va didaktika umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanidan o'quvchilarga bilim – malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik jarayoni sanaladi. Metodika – umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanidan o'quvchilarga bilim – malakalar

⁷ B.N.Oripov. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. N. 2001 – 2007 yil (18 – 25 bet)

⁸ B.N.Oripov. Tasviriy san'at ta'limida didaktika. N. 2008 yil (13 – 25 bet)

berishning eng oson, eng samarali pedagogik ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'lib, darsdagi oldindan belgilangan natijalarni kafolatlay oladigan jarayon hisoblanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini metodik tayyorgarlashda eng ko'p ishlatiladigan metod "Og'zaki bayon etish" metodi bo'lsada "Ko'rgazmali o'qitish" va "Amaliy ishlar" metodidan ham har bir dars jarayonida foydalaniladi.

Chunki, umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fani o'quv fanining o'ziga xos xarakteriga ko'ra ko'rgazmasiz o'qitish mumkin bo'lmagan o'quv fani hisoblanadi.

Yana bu o'quv predmetini pedagogik texnologiyasiga ko'ra, 45 minutli darsni yarmidan ko'pi amaliy ishlar bilan ta'minlanadi.

- Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarida: "Og'zaki bayon etish" metodini suhbat, hikoya, savol – javob, ma'ruza kabi uslublaridan;

- "Ko'rgazmali o'qitish" metodini namoyish, illyustratsiya va reproduksiya bilan ishlash, doskada o'qituvchi rasmi va eksursiya, kabi uslublardan;

- "Amaliy ishlar" metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy-amaliy san'at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san'at asarlari tahlili, san'at asarlari yuzasida insho, referat yozish, kabi uslublardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini metodik tayyorgarlashda tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasi o'zini oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o'qitish didaktikasi va metodikasidan a'lo darajada foydalana olishi o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Manbaa P. Zoxidov. Me'mor san'ati. T. 1978 y. (32 - bet) olindi.
2. O. Usmanov. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. T. 1977 y. (35b).
3. R. Xasanov. "Metodicheskie osnovi xudojestvennogo obrozovaniya i vospitaniya v obsheobrazovatelnoy shkole". T. 1990 y.
4. O. Xudoyorova. Stonovlenie i razvitie prepodovaniya izobrazitel'nogo isskustva v obsheobrazovatel'nix shkolax Uzbekistana. Avtorof. T. 1997 y
5. N. Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiya. T. 2003 yil. (70-74 bet)

- 6.R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasi.T. 2004y (83-98 bet)
- 7.B.N.Oripov. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. N. 2001 – 2007y (18–25 bet)
8. B.N.Oripov. Tasviriy san'at ta'limida didaktika. N. 2008 yil (13 – 25 bet)